

O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI

**Qodirova Malikaxon Qaxramonovna – JDPI, katta o'qituvchi
Nahalboyeva Nigora – JDPI, 3-bosqich talabasi**

Sayyoramizning ertangi kuni faravonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Annotasiya: Maqlada o'smirlik davrining psixologik jihatdan rivojlanish xususiyatlari, o'smir shaxsining shakllanib, kamolotga erishish yo'llari va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri masalalari, olimlar tomonidan o'smirlarga berilgan ta'rif, o'smirlar bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar: o'smir, psixik o'sish, kamolot, jinsiy balog'at, xarakter, xususiyat, o'z-o'zini anglash, ota-onas, pedagog, psixolog, e'tibor, qiziqish.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlakgi pallasida ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi yosh avlodning yutug'idir. Har qanday mamlakatning ertangi taraqqiyotini uning kuchli bilim va salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan yoshlar belgilab beradi. Ularni global rivojlanishning barcha sohalari va tarmoqlariga hayotbaxsh kuch bag'ishlovchi shiddatli lokomativ desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bugun dunyo aholisining 30 foizdan ko'progini yoshlar tashkil etmoqda. Ushbu foizlarning ko'p qismini o'smirlar tashkil qiladi. O'smirlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash yosh avlod tarbiyasiga berilgan e'tibor desak mubolagá bo'lmaydi.

O'smirlik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlarida nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. „Endi o'smir bola emas biroq kata ham emas“ ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim harakterini

bildiradi. O'smirlik - bolalikdan kattalikga o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish bosqichi bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taaluqli chigal vaziyatlarning paydo bolishi bilan ham harakterlanadi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobilyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qiyuvchilariga qiziqishga intiladilar. O'smirlik davri „o'tish davri”, „krizis davr”, „qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlar bilan harakterlanadi. O'smirlik davrida ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy hususiyatlar xosdir. O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'smirlik yoshiga hos bo'lgan psixologik hususiyatlarini o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z- o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti- harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Ioda oliv psixik funksiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. O'z-o'zini anglash hissining tarkib topishi, o'ziga nisbatan go'yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan temperament tipidagi o'smirlar uchun muhim xususiyatlardir.

Psixolog L.S.Vigotskiy o'smir yoshi psixologiyasini „psixik rivojlanishdagi inqiroz” deb nomlagan. O'smirlik davridagi inqiroz-o'smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat'iy o'zgarishi, buzilishidir. U 13 yoshni inqirozni sindiradigan nuqtasi deb atagan. Inqirozdan keyingi davrlar ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan subektiv yanada qiyinroq deb ataladigan yangi psixologik tuzilmalar shakllanadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalar, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Vigotskiy psixik rivojlanishdagi inqiroz bilan cheklanib qolmasdan, o'smirlik davridagi qiziqishlarning o'zgarishiga bog'liq ravishda ikki ya'ni salbiy va ijobiy fazani ajratib ko'rsatgan. Salbiy fazalar ilgarigi qiziqishlarning so'nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari namoyon bo'ladi; ish qobiliyatining, o'zlashtirishning pasayishi, o'smirning qo'polligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, uning o'zidan qoniqmasligi va

xavotirlanish va boshqalar. Ijobiy fazasini keng, chuqur yangi qiziqishlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. O'smirda boshqalarning va o'zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo'ladi. Vigotskiy izlanishlariga hamohang tarzda M.G.Davlatchin , "5-7-sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish" mavzusida o'z tadqiqotlarini olib borgan. Professor M.G.Davlatchin mehnat ta'limi va kasbga yo'llash muammolariga, texnik qiziqish va texnik qobilyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan.

Xulosa o'rnda shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, yuqorida olimlarning izlanishlanishlarini o'rganib chiqib o'smirlik yosh davrining naqadar muhim va dolzarb mavzu ekanligini hamda bu yosh davrining psixologik xususiyatlariga va o'zgarishlariga jamiyatning har bir a'zosi bee'tibor bo'lmasligini aytib o'tish o'rnlidir. O'smir tarbiyasiga oilada ota-onalar va yaqinlari, ta'lim muassasalarida esa har bir pedagog ma'suldirlar. Oilada ota-onalar quyidagi tavsiyalarga e'tibor berishlarini hohlardik:

- o'smir yoshidagi farzandlariga ko'proq e'tiborli bo'lish
- bolaga imkon qadar vaqt ajratish
- bo'sh vaqtining to'g'ri taqsimlanganligini nazorat qilib borish
- qiziqishlariga ijobiy fikr bildirilib, do'stona muloqotning yo'lga qo'yilishi
- oila a'zolariga nisbatan to'g'ri muomala ma'daniyatining yo'lga qo'yilganligini nazorat qilib borish kabi tavsiyalarga e'tibor berishlarini ta'kidlagan bo'lar edik.

Ta'lim muassasalarida pedagoglar o'smirlarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berishlari muhim:

- o'smirning darsdagi faoliyati
- maktab jamoasiga munosabati
- tengdoshlar bilan hamfikrlilikning yo'lga qo'yilganligi
- o'quv jarayonidagi o'quvchilarning qiziqish va e'htiyojlariga e'tiborli bo'lishi
- mustaqil fikrlashlari uchun o'zlarini qiziqtirgan soha bo'yicha faoliyat olib borishlari uchun sharoit yaratilishiga e'tibor berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ushbu tavsiyalar o'smirlarda o'tish davrining qiyinchilaklarsiz o'tishini ta'minlaydi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.G'oziyev E.,, Umumiy psixologiya''.-T.;O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2010.-548-b

2.Davlatchin M.G.,,Yosh va pedagogik psixologiya''.-T.,2004

3.Nishanova Z.T. va boshqalar „Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya”.-T.;O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2018.332-b

4.Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o’smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.

5.Qodirova, M. (2020). Особенности периода взросления подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.

6.Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg’ulotlarning o’rni. Архив Научных Публикаций JSPI.

7.Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o’qitishda zamonaviy texnologiyalarning o’rni va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.

8.Qodirova, M. (2020). РОЛЬ ЗАНЯТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТИ РАЗМЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ. Архив Научных Публикаций JSPI.

9.Qodirova, M. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHI O ‘QUVCHILARINI HAR TOMONLAMA SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSfSIYATLARI. Архив Научных Публикаций JSPI.

10.Qodirova, M. (2020). Shaxsning ichki konfliktlari va mexanizmlari. Архив Научных Публикаций JSPI.

11.Qodirova, M. (2021). МАШФУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1460>

12.Malikaxon Qodirova, ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

13.Malikaxon Qodirova, ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education